

IQTISODIY RISK TURLARI VA ULARNI BAHOLASH SHAKLLARI

Nosirov Muzaffar Tolib o'g'li

Namangan muhandislik-texnologiya instituti

Menejment" kafedrasi assistenti

muzaffarnosirov1992@gmail.com

Ilmiy rahbar: i.f.n (PhD) **R. R. Xojimatov**

Annotatsiya: Usbu maqolada dunyo maydonidagi iqtisodiy risklar haqida umumiy tahliliy mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Kapital, qog'oz bo'yicha risk, fond bozori, capital riski, makroiqtisodiy risk.

Xorijiy mamlakatlar amaliyotda kapitalning har bir turi bo'yicha risklarning darajasi bo'yicha turli xil reytinglar orqali belgilanadi. Fond bozorlarida faoliyat ko'rsatayotgan reyting axborot agentliklari kapitalning turlari bo'yicha, risk darajalari bo'yicha reyting darajalarini rasmiy e'lon qiladilar. Ular e'lon qiladigan ma'lumotlarda har bir qimmatli qog'ozning emitenti moliyaviy xolati to'g'risida, bu qimmatli qog'oz bo'yicha risk turi va uning darajasi, daromadlilik darajasi bo'yicha kerakli ma'lumotlar beriladi.

Biroq, tijorat banklari o'z kapital faoliyatini yurita borib, eng avvalo riskni hisobga olishlari kerak. Bu esa kapital faoliyati o'zining barcha shakl va turlarida riskga duch kelishida, bu riskning darajasi iqtisodiyotda bozor munosabatlarining chuqurlashuvi bilan kuchayishida aks etadi. Hozirgi sharoitda risk darajasining kuchayishi umuman mamlakatda va xususan, kapital bozorida noaniqlik kuchayib borayotganligi bilan; iqtisodiy vaziyat tez o'zgarib borayotganligi bilan; kapital ob'ektlari ko'plab taklif etilayotganligi bilan; kapital uchun yangi-yangi moliyaviy vositalar paydo bo'layotganligi va boshqa omillar bilan bog'liqdir.

Yo'qotishlarni kutish, bu yo'qotishlar ehtimolini mo'ljallanayotgan foyda bilan taqqoslash mamlakat bozorida kapital foaoliyatini amalga oshirish maqsadga muvofiqligi to'g'risidagi qarorlarni tanlash uchun asos bo'lib, uni tashkil etish shaklini tanlaydi.

Iqtisodga oid asarlarda kapital riski deganda kapital faoliyati shartlarining noaniqligi vaziyatida ko'zda tutilmagan moliyaviy yo'qotishlar (foyda, daromadning pasayib ketishi, sarmoyani yo'qotish va h.k.) vujudga kelishi ehtimoli anglanadi.

Chet elda esa kapital riski tushunchasi keng ma'noda talqin etiladi. Shuning uchun ham xorijiy adabiyotda kapital riski deganda kapital faoliyatiga muayyan darajada ta'sir etishi mumkin bo'lgan ayrim voqealar sodir bo'lishi ehtimolini tushunish kerak, deb ta'kidlanadi. Muntazam risk kapitalning barcha qatnashchilari va shakllari uchun vujudga keladi. U mamlakat taraqqiyotining iqtisodiy sikli bosqichlari o'zgarishi yoki kapital bozorini rivojlantirish konyukturna bosqichiga, shuningdek investor tomonidan kapital vositalarini tanlashiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan boshqa shu kabi omillarga bog'liq.

O'ziga xos risk – bu umumlashma tushuncha bo'lib, muayyan ob'ekt, kapital shakli yoki muayyan investor bilan bog'liq bo'lgan barcha turdagи risklarni o'zida mujassamlashtiradi. O'ziga xos risk boshqariladigan risk bo'lib, kapital jarayonlari boshqaruvi samaradorligiga bog'liq bo'ladi.

Namoyon bo'lish sohalariga ko'ra, risklar makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy guruhlarga ajratiladi.

Makroiqtisodiy risklarga quyidagilar kiradi:

- iqtisodiy omillar o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy risk. Riskning mazkur turi kapital faoliyati shakli bilan vujudga keladi;

- siyosiy risk kapital faoliyatining turli xildagi ma'muriy cheklovleri bilan vujudga keladi;
- ijtimoiy risk mamlakatdagi ijtimoiy jarayonlar bilan bog'liq (mamlakatda rejalashtirilmagan ijtimoiy tadbirlar);
- yekologik risk – bular yekologik falokat va ofatlar bo'lib, ular kapitallanayotgan ob'ektlar faoliyatiga salbiy ta'sir o'tkazishi mumkin;
- tarmoq riski ayrim tarmoqlarning o'ziga xos xususiyati bilan bog'liq. Tarmoq risklari tarmoqning u yoki bu turga taaluqliligiga va kapital faoliyatini amalga oshirayotgan tijorat banklari tomonidan ana shu omilga to'g'ri baho berilishiga qarab investorni yo'qotishda namoyon bo'ladi;
- hududiy risklar hududning kapitallarni jalg etishiga noob'ektiv baho berilishi tufayli vujudga keladigan yo'qotishlar bilan bog'liqdir;
- qonunlar o'zgarishi riski, mavjud Qonunlar, Farmonlar, Vazirlar Mahkamasining Qarorlari o'zgarishi bilan vujudga keladigan yo'qotishlar riskida ifodalanadi;
- infliyatsiya riski investor daromadlari o'sishidan ko'ra tezroq qadrsizlanishida, buning oqibatida investor real talofat ko'rishida namoyon bo'ladi;
- valyuta riski - xorijiy valyuta kursi o'zgarishi yoki mamlakatda kapital faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan maxsus ravishda valyutani tartibga solish tadbirlarining amalga oshirilishi tufayli sodir bo'ladi;
- hokazo risklar turlariga reket, mulkni talon-taroj qilish, sheriklar tomonidan aldash va boshqalar kiradi. Quyidagilarni mikroiqtisodiy risklar jumlasiga kiritish mumkin: - dinamik risk, noto'g'ri boshqaruvchilik qarorlari qabul qilinishi natijasida asosiy kapital qiymatining ko'zda tutilmagan o'zgarishlari riski bilan bog'liq;
- statik risk - bu mulkka zarar yetkazish natijasida real aktivlarni yo'qotish, shuningdek tashkilotning noqobiligi tufayli daromadni yo'qotish riski. Kapital shakliga ko'ra real kapital risklari va portfel kapital risklarini ajratish mumkin. Real kapital risklari jumlasiga quyidagilar kiradi:
- selektiv risk - real kapital ob'ektini yoki real kapitallar portfelin shakllantirishda boshqa kapital loyihalarga nisbatan kapital loyihasini noto'g'ri tanlash tufayli moliyaviy talofatlar ko'rish mumkinligi demakdir;
- muvaqqat risk – dastlabki kapital qo'yilmalarni amalga oshirishda nobop vaqtini tanlash riskidir; - tarkibiy risk - kapitallarning nooqilona tarkibini tanlash bilan bog'liq bo'lgan yo'qotishlar riskidir;
- loyiha rivojlanmasligi riski - loyihamadan ko'zda tutilgan daromadlar harajatlarni qoplash, qarzlarni to'lash va har qanday kapital qo'yilmalarning o'rnnini qoplash uchun yetarli bo'lmasligi tufayli vujudga keladi;

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ўзбекистон Республикаси Молия Вазирлиги, Ўзбекистон Республикаси Марказий банки Бошқарувининг “Ўзбекистон Республикасида давлат қиқса муддатли қарз мажбуриятларини чиқариш тўғрисидаги” низомга ўзгартиришлар ва қўшимча киритиш ҳақида” Қарори Тошкент ш. 5 марта 2016 йил, № 5
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. Халқ сўзи, 29.12.2018 й
3. Абдуллаева Ш.З, Сафарова З. Тижорат банкларининг молиявий ресурсларини бошқариш. Т.: ИҚТИСОД-МОЛИЯ, 2007.
4. Абдуллаева Ш.З, Сафарова З. Тижорат банкларининг молиявий ресурсларини бошқариш. Т.: ИҚТИСОД-МОЛИЯ, 2007.